

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI  
VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**SHNQ 2.03.13-24 “POLLAR” SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI  
TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 1-iyulda hisobga olindi,  
hisob raqami 262]**

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi 231-son “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. SHNQ 2.03.13-24 “Pollar” shaharsozlik normalari va qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2019-yil 15-oktabrdagi 480-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 2.03.13-19 “Pollar” qurilish me‘yorlari va qoidalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Sport vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir B. ZAKIROV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 20-iyun,  
01/2-21-son  
Kelishildi:

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi  
B. YUSUPALIYEV**

2024-yil 14-may

**“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi Tabiiy pardozeb toshlar va boshqa tosh  
mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha rais o‘rinbosari B. BOBOKULOV**

2024-yil 15-may

**Sport vaziri A. IKRAMOV**

2024-yil 16-may

**Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri X. UMAROVA**

2024-yil 17-may

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. ABDUXAKIMOV**

2024-yil 27-may

**Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV**

2024-yil 7 iyun

### **SHNQ 2.03.13-24 “Pollar” shaharsozlik normalari va qoidalari**

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda SHNQ deb yuritiladi) ishlab chiqarish va turar joy obyektlari, omborxonalar (yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar, o'q-dorilar, xavfli chiqindilar, kimyoviy vositalar, radioaktiv, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar, yonuvchan va yonmaydigan gazlar, neft va neft mahsulotlari saqlanadigan omborxonalar bundan mustasno), chorvachilik hamda jamoat binolarining pollarini loyihalashga oid talablarni belgilaydi.

Ushbu SHNQning talablari olib qo'yiladigan hamda doimiy muzlik gruntlarda joylashgan pollarni loyihalashga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### **1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar**

1. Mazkur SHNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar qo'llanilgan:

SHNQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi”;

QMQ 2.01.08-19 “Shovqindan himoya”;

SHNQ 2.09.15-23 “Muzlatkichlar”;

GOST ISO 14644-1-2002 “Toza xonalar va ular bilan bog'langan nazorat qilinuvchi muhit 1 Qism. Havo tozaligining klassifikatsiyasi” (*rasmiy manba: Chistie pomesheniya i svyazannie s nimi kontroliruyemie sredi. Chast 1. Klassifikatsiya chistoti vozduxa*).

#### **2-bob. Atamalar va ta'riflar**

2. Mazkur SHNQda quyidagi atamalar va ularning ta'riflari qo'llanilgan:

**turar joy obyektlari** — odamlar yashashi uchun mo'ljallangan binolar, doimiy yashash uchun uy-joylar (xonadonlar), shuningdek vaqtincha yashash uchun yotoqxonalar, mehmonxonalar, maktab-internatlar, qariyalar uylari;

**ishlab chiqarish obyektlari** — odamlar va texnologik asbob-uskunalar ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar ta'minlanadigan ishlab chiqarishni joylashtirish uchun mo'ljallangan binolar hamda inshootlar;

**jamoat binolari** — odamlarning vaqtincha yashashi va turli xil faoliyat turlarini amalga oshirishlari uchun mo'ljallangan obyektlar: madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va tashkilotlari, bank-moliya muassasalari, qurilish-kommunal tashkilotlari aloqa, transport korxonalarini hamda ma'muriy binolar;

**polning antistatikligi** — pol qoplamasida statik elektrning to'planmasligi;

**gidroizolyatsiya** — oqindi yoki grunt suvlari va boshqa suyuqliklarning pol orqali sizib kirishiga to'sqinlik qiladigan qatlam;

**gruntli asos** — ustidan to'shama qatlam yoki lagalar ostiga tayanchlar o'rnatiladigan grunt qatlami;

**drenaj** — yomg'ir va yerosti suvlarini chetga chiqarish tizimi;

**polning tovushni izolyatsiyalash qobiliyati** — orayopmalarda pol orqali kiradigan shovqinning zaiflashuvi;

**tovush izolyatsiyasi qatlami** — polning tovushni izolyatsiyalash qobiliyatini oshiradigan elementi;

**to'shaladigan qatlam** — gruntga tushadigan yuklarni taqsimlaydigan pol qavati;

**qoplama** — polning ekspluatatsiya ta'sirlariga bevosita uchraydigan ustki qavati;

**pol** — ekspluatatsiya qilish paytidagi ta'sirlarni qabul qilish va orayopma yoki grunt bo'ylab qayta taqsimlash uchun mo'ljallangan bino (inshoot) elementi;

**oraliq qatlam** — qoplamaning polning pastda joylashgan qavatini bilan bog'laydigan yoki qoplama uchun elastik to'shama vazifasini bajaradigan oraliq qavat;

**issiqlik izolyatsiyasi** — polning umumiy issiqlik o'tkazuvchanligini kamaytiradigan pol elementi;

**pol qatlamining issiqlikni o'zlashtirishi** — issiqlik oqimining davriy o'zgarib turishida pol qoplama yuzasining issiqlikni u yoki bu darajada qabul qilish xususiyati.

### 3-bob. Umumiy qoidalar

3. Polning konstruktiv yechimini tanlashda quyidagi talablar ta'minlanishi lozim:

polning ekspluatatsion ishonchliligi va ko'pga chidamliligi;

qurilish materiallarining tejalishi;

gruntlarning mustahkamlik va deformatsiyalanish tavsiflaridan va pollarni o'rnatishda materiallarning fizik-mexanik xususiyatlaridan to'liq foydalanish;

o'rnatish va ekspluatatsiya qilishda eng kam mehnat sarfini ta'minlash;

o'rnatish jarayonlarini maksimal darajada mexanizatsiyalash;

ekologik xavfsizlik;

odamlarning harakatlanishidagi xavfsizligi;

odamlar uchun maqbul gigiyenik sharoitlar;

yong'in va portlash xavfsizligi.

4. Pollarni loyihalashtirishda ularga tushadigan ekspluatatsiya ta'sirlari, maxsus talablar (uchqun chiqarmaslik, antistatiklik, elektr o'tkazuvchanlik, chang chiqarmaslik, tekislik, chidamlilik, issiqlikni o'zlashtirish, tovushni izolyatsiyalash qobiliyati, nam o'tkazmaslik, sirpanchiqlik) va gigiyena talablari (dezinfeksiyalovchi vositalar ta'siriga bardoshlilik, oson tozalanishi), shuningdek qurilish joyining iqlimiy sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Shovqindan muhofaza qilish QMQ 2.01.08-19 talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. Pollarga mexanik ta'sirlarning intensivligi quyidagi 1-jadval bo'yicha qabul qilinishi zarur.

1-jadval

Mexanik ta'sirlar	Mexanik ta'sirlarning intensivligi			
	o'ta sezilarli	sezilarli	o'rtacha sezilarli	kam sezilarli
Yo'lning 1 m kengligida piyodalar harakati, 1 d (sutka)da odamlar soni			500 va undan ortiq	500 dan kam
Harakatlanishning bir qatorida gusenitsali transport harakati, dona/d	10 va undan ortiq	10 dan kam	Yo'l qo'yilmaydi	Yo'l qo'yilmaydi
Harakatlanishning bir qatorida rezina g'ildirakli transport harakati, dona/d	200 dan ortiq	100-200	100 dan kam	faqat qo'l aravachalarining harakatlanishiga yo'l qo'yiladi
Harakatlanishning bir qatorida metall shinali aravachalar harakati, yumaloq metall predmetlarni g'ildiratish, dona/d	50 dan ortiq	30-50	30 dan kam	Yo'l qo'yilmaydi
Qattiq predmetlarning 1 m balandlikdan tushish	20	10	5	2

natijasidagi zarbalari, massasi kg da, ko'rsatilgandan ortiq bo'lmasligi kerak				
O'tkir burchakli va qirrali qattiq predmetlarni sudrash	Yo'l qo'yiladi	Yo'l qo'yiladi	Yo'l qo'yilmaydi	Yo'l qo'yilmaydi
Polda uchi o'tkir asbob (belkurak va boshqalar) bilan ishlash	Yo'l qo'yiladi	Yo'l qo'yiladi	Yo'l qo'yilmaydi	Yo'l qo'yilmaydi

6. Suyuqliklarning polga ko'rsatayotgan ta'sirini intensivligi quyidagicha hisoblanadi:

kam — suyuqliklarning polga uncha katta bo'lmagan ta'siri, bunda pol yuzasi quruq yoki biroz nam bo'ladi, pol qoplamasi suyuqliklarni shimmaydi hamda xonalarni tozalashda polga suv qo'yilmaydi;

o'rtacha — pol vaqti-vaqti bilan namlanib turadi va bu holat qoplama suvni shimishiga sabab bo'ladi. Bunda, pol yuzasi nam yoki ho'l bo'ladi hamda suyuqliklar pol yuzasidan vaqti-vaqti bilan oqib turadi;

katta — suyuqliklar pol yuzasida muttasil yoki tez-tez oqib turadi.

7. Polning ho'l bo'lgan yeridan suyuqlikning poyabzal va transport shinalari orqali har tarafga (yondosh xonalarni hisobga olgan holda) tarqalish zonasi suv va suvli eritmalar uchun 20 m, mineral yog'lar va emulsiyalar uchun 100 m masofani tashkil qiladi.

8. Polni (suv qo'ymasdan, shuningdek pol qoplamalari tayyorlanadigan materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining tavsiyalariga mos keladigan yuvish vositalaridan foydalangan holda) yuvish va unga tasodifiy tomchilarning sachrashi, tushishi polga suyuqlikning ta'siri sifatida hisoblanmaydi.

9. Suyuqliklar polga o'rtacha va katta intensivlikda ta'sir ko'rsatadigan xonalarda pollardagi qiyalik quyidagicha bo'lishi kerak:

0,5-1 foiz — choksiz va plitadan qilingan qoplamalarda (beton qoplamalar bundan mustasno);

1-2 foiz — g'isht va barcha turdagi betondan qilingan qoplamalarda.

10. Lotoklar va kanallar qiyaligi qo'llangan materiallarga qarab mos ravishda yuqorida ko'rsatilganlardan kam bo'lmasligi, qiyaliklarning yo'nalishi oqova suvlar, transport yo'llari va o'tish joylarini kesib o'tmay, lotoklar, kanallar va traplarga oqib tushishi kerak.

11. Chorvachilik binolarida pol qiyaligi go'ng yig'iladigan kanal tomon quyidagi kattaliklarda bo'lishi lozim:

0 foiz — poli panjarali xonalarda va go'ng mexanik tarzda yig'iladigan kanallarda;

0,5 foizdan kam bo'lmagan — parranda saqlanadigan xonalarda va barcha xonalardagi o'tish joylari bo'ylab lotoklarda;

5 foizdan kam bo'lmagan — xonalarning texnologik qismlarida (og'ilxona va molxona bo'lmalari, kataklari);

6 foizdan ko'p bo'lmagan — hayvonlar va parrandalar semirtiriladigan xonalar va binolar o'rtasidagi o'tish yo'laklarida.

12. Orayopmalardagi pollarning qiyaligi o'zgaruvchan qalinlikdagi styajka orqali, gruntlardagi pollarda asos gruntini tegishli rejalashtirish orqali hosil qilinishi kerak.

13. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash xonalarda bo'shliqsiz (qoplama ostida havo qatlamisiz) pollarni loyihalash lozim.

14. Hojatxona va vanna xonalarda pol sathi yondosh xonalardagi pol sathidan 15 — 20 mm past bo'lishi yoki bu xonalardagi pollar ostona bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

15. Pollarning devorlar, pardevorlar, ustunlar, asbob-uskunalarini o'rnatish uchun mo'ljallangan poydevorlar, quvur yo'llari va poldan chiqib turadigan boshqa konstruksiyalarga tutashgan joylarida plintus o'rnatilishi lozim.

Devorlar bo'ylab deformatsiya choklari bo'lmagan, estetik talablar hamda suyuqliklar ta'siri past intensivlikda bo'lgan xonalarda kechadigan texnologik jarayonlarda alohida talablar

qo'yilmagan hollarda, pollarning devorlarga tutashgan yerlarida, germetiklik ta'minlangan bo'lsa, plintuslar o'rnatilmaslikka yo'l qo'yiladi.

16. Kimyoviy chidamli pollarda lotoklar, kanallar va traplarning yuzasini qoplashda pollarni qoplash uchun mo'ljallangan materiallar ishlatilishi kerak.

17. Mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash uchun mo'ljallangan, shuningdek hayvonlar saqlanadigan xonalar pollarining konstruksiyasida bo'shliqlar bo'lmasligi kerak.

18. Binolardagi pollar quyidagi yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim:

turar joy obyektlarida — 2 kN;

jamoat binolarida — 5 kN;

sanoat binolari va omborxonalarni loyihalash uchun texnik shartlardagi yuklarga mos keladigan to'plangan yuk ta'siridagi og'ishlar — 2 mm dan oshmasligi.

19. Suyuqliklarning o'rtacha va katta intensivlikdagi ta'siriga uchraydigan (ochiq stadionlar va maydonchalardagi yomg'ir va erigan qor suvlari) yassi sport inshootlarining pollaridagi suvlarni chetga chiqarish uchun drenaj tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.


20. Yassi inshootlar hududidan suvni ketkazish uchun ushbu hududda qiyaliklar bo'lishi, shuningdek unda yuzaki suvlarni to'plash va ketkazish uchun ochiq lotoklar tizimi, yopiq quvurlar va quduqlar tizimi yoki ochiq lotoklar va yopiq suv ketkazuvchi tizimlar uyg'unlashgan (kombinatsiya) ko'rinishdagi qurilmalar loyihalaniishi lozim.

21. Yassi ochiq inshootdagi pol qoplamasining qiyaligi 0,5 — 1 foiz bo'lishi kerak.

22. Qiyaliklarning yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi zarur:

tennis korti, voleybol va badminton uchun maydonchalarning ko'ndalang o'qidan quyidagi 1(A)-rasmda keltirilgandek;

basketbol, futbol, qo'l to'pi va boshqa maydonchalarning bo'ylama o'qidan quyidagi 1(B)-rasmning yoki chodirsimon 4 tomonga quyidagi 1(V)-rasmda keltirilgandek.



1-расм. Қияликларнинг йўналишлари

23. Sport inshootlari pollaridagi lotoklar va kanallar panjarali qopqoqlar bilan yopilgan bo'lishi lozim.

24. Sportning o'yin turlari uchun (futbol, voleybol, basketbol, tennis) mo'ljallangan zallarning pollari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

zarbni yutishlik — 53 foizdan kam bo'lmasligi;

standart deformatsiya (nuqtaga 1500 N ga teng kuch bilan zarb yuki tushganida, pol qoplamasining egilish qiymatini tavsiflaydigan parametr) — 2,3 mm dan kam bo'lmasligi;

W 500 faktori (yuk ta'sir qiladigan nuqtadan 500 mm masofadagi deformatsiyani tavsiflaydigan parametr) — standart deformatsiyaning 15 foizdan kam bo'lmashligi;  
to'pning urilib qaytishi (sakrashi) — 90 foizdan kam bo'lmashligi;  
dumalatishdagi bosim — 1500 N dan kam bo'lmashligi.

25. Pollarga chang chiqarmaslik, tekislik, antistatiklik va (yoki) uchqun chiqarmaslik bo'yicha qo'yiladigan talablar texnologik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olingan holda belgilanishi lozim.

26. Keramik plitka bilan qoplangan isitiladigan pollar kishilar oyoq yalang yuradigan zonalar, vannalar va basseynlarning perimetrlari bo'ylab aylanma yo'laklar (ochiq basseynlar bundan mustasno), kiyinish joylari, dushxonalarda bo'lishi kerak.

Pol yuzasining o'rtacha harorati 21 — 23 °S darajada ushlab turilishi lozim.

27. Manfiy haroratda sovutiladigan xonalardagi pollar pol tagiga asos bo'lgan gruntlarning muzlashini oldini olish zarurligini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi, bunda SHNQ 2.09.15-23 va SHNQ 2.01.04-18 talablariga muvofiq sun'iy isitish tizimlarini qo'llash, termoizolyatsiya va boshqa himoya tizimlari bilan ta'minlanishi zarur.

#### **4-bob. Yong'in xavfsizligi**

28. Funksional yong'in xavflilik sinfi F5 bo'lgan xonalarga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq yengil alanganuvchi suyuqliklar ishlab chiqariladigan, qo'llaniladigan yoki saqlanadigan portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalari A, B va V1 bo'lgan xonalarning pollari YONM (yonmaydigan) yoki Yo<sub>1</sub> (kuchsiz yonuvchan) yonuvchanlik guruhidagi materiallardan loyihalaniishi lozim.

29. Olovning pol yuzasi bo'ylab tarqalish ko'rsatkichlari 30 qavatgacha bo'lgan binolarda 0,5 W/sm<sup>2</sup> dan (40 sm dan kam) va 30 qavatdan ortiq binolar uchun 0,7 W/sm<sup>2</sup> dan ko'p bo'lmashligi (30 sm dan kam) sharti bilan gilam qoplamali pollarni, shuningdek yonmaydigan materiallar guruhiga kirmaydigan boshqa materiallardan yasalgan gilam qoplamalarni (zinapoya kataklaridan tashqari) evakuatsiya yo'llarida qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

30. Bir vaqtning o'zida 50 kishiga mo'ljallangan xonalarda gilam qoplamasi bo'ylab pol yuzasida olovning tarqalish ko'rsatkichi 0,25 W/sm dan (60 sm dan kam) oshmasligi va bir vaqtning o'zida 500 kishiga mo'ljallangan xonalarda esa 0,7 W/sm dan (30 sm dan kam) oshmasligi lozim.

31. Ochiq maydonchalar hamda portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha ishlab chiqarish toifasi A, V, "V1-V4" bo'lgan xonalarning pol qoplamalari uchqun chiqarmaydigan materiallardan loyihalaniishi kerak.

#### **5-bob. Pol qoplamalari**

32. Ishlab chiqarish obyektlaridagi pol qoplamasining turi ushbu SHNQning 1-ilovasiga muvofiq pollarga qo'yiladigan maxsus talablar hamda mexanik, suyuq va issiqlik ta'sirining turi va intensivligini hisobga olgan holda belgilanishi kerak.

33. Turar joy obyektlari va jamoat binolaridagi pol qoplamalari mazkur SHNQning 2-ilovasiga muvofiq loyihalaniishi kerak.

34. Yaxlit qoplamalar materiallari va pol qoplamalari plitalarining qalinligi va mustahkamligi ushbu SHNQning 1-ilovasining 4-jadvali bo'yicha aniqlanishi lozim.

35. Quvurlarni beton qoplamalarda ularni bevosita beton asos bo'ylab o'rnatganda, (quvurlarni yopish uchun oraliq styajkasiz) pol qoplamasining qalinligi quvur diametriga 45 mm qo'shilganidan kam bo'lmashligi zarur.

36. Sementli bog'lovchi asosidagi qoplamalarning beton asos bilan birikish (uzilishga qarshi) mustahkamligi betonning 28 h lik davrida 0,75 MRa dan kam bo'lmashligi, shuningdek qotgan (beton) qorishmaning beton asos bilan bog'lanish mustahkamligi 7 kundan keyin loyihada ko'rsatilgan mustahkamlikka nisbatan 50 foizdan kam bo'lmashligi kerak.

37. Beton qoplamali va issiqqa chidamli beton qoplamali pollarning umumiy qalinligi polga ta'sir ko'rsatadigan yuklar, qo'llaniladigan materiallar va asos gruntining xususiyatlarini

hisobga olgan holda loyihalaniishi, biroq beton asosining qalinligi 120 mm dan kam bo'lmashligi zarur.

38. Chorvachilik binolarida hayvonlarni to'shamasiz saqlashda pol qatlamining issiqlikni o'zlashtirishini ta'minlash uchun ishlatiladigan quyidagi pollar issiqlik saqlaydigan qatlam ustidan qoplanishi va siqilishga mustahkamligi 20 MRa bosimdan kam bo'lmashligi lozim:

lateks sement qoplamali yengil betondan yasalgan monolit;

ohak-keramzit;

keramzit shag'alli.

39. Issiqlikka chidamli beton plitalarning qalinligi va armaturalanishi deformatsiyalanadigan asosda polga noqulay tushadigan yuklar ta'siridagi konstruksiyalarning hisoblari bo'yicha qabul qilinishi kerak.

40. Taxtalar, reykalalar, parket taxtalari va shchitlaridan bajarilgan qoplamalar ostidagi havo bo'shlig'i ventilyatsiya va tutun yo'llari bilan bog'lanmagan bo'lishi, bunda yuzasi 25 m<sup>2</sup> dan ortiq xonalarda esa qo'shimcha ravishda taxtalardan yasalgan (4-5)x(5-6) m o'lchamdagi pardadevorlar bilan ajratilgan bo'lishi lozim.

41. Inson uchun qulay sharoitni ta'minlash va asbob-uskunalarini 5 kW dan ortiq kuchlanishli elektr zaryadlaridan himoyalash maqsadida turar joy obyektlari va jamoat binolari xonalaridagi pollarning qoplamasining sirt elektr qarshiligi 106 — 109 Om chegaralarida bo'lgan polimer antistatik materiallardan bo'lishi kerak.

42. Sanoat binolarining xonalarida insonlar uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanishi, shuningdek elektr asbob-uskunalarini 2 kW dan ortiqroq kuchlanishli elektr zaryadlaridan himoyalash uchun pollar elektr tarqatuvchi qoplamalar bilan qoplanishi, bunda pol qoplamasining yuzasi va yerga ulanish tizimi o'rtasidagi elektr qarshilik kattaligi 5·10<sup>4</sup> dan 10<sup>7</sup> Om oralig'ida bo'lishi lozim.

43. Gaz, chang, suyuqlik va boshqa moddalarning portlovchi aralashmalari hosil bo'ladigan konsentratsiyalarda, predmetlar polga urilganda uchqun paydo bo'ladigan yoki statik elektr tokining chiqishi portlash yoki yong'ingaga olib kelishi mumkin bo'lgan xonalarning pollari zarbli ta'sirlarda uchqun hosil qilmaydigan elektr tarqatuvchi qoplama bilan qoplangan bo'lishi, bunda pol qoplamasining yuzasi va yerga ulanish tizimi o'rtasidagi elektr qarshilik kattaligi 5·10<sup>4</sup> dan 10<sup>6</sup> Om oralig'ida bo'lishi zarur.

44. Tozalik sinflari bo'yicha tasniflanadigan "toza" va "o'ta toza" xonalarda pollar pol qoplamasining yuzasi va yerga ulanish tizimi o'rtasidagi elektr qarshilik kattaligi 5·10<sup>4</sup> dan 10<sup>7</sup> Om gacha keladigan elektr tarqatuvchi polimer qoplamadan bajarilishi kerak.

Tozalik sinflari bo'yicha tasniflanadigan xonalar sinfi GOST ISO 14644-1-2002 ga muvofiq aniqlashini zarur.

45. Pol qoplamasi yuzasidan statik elektrni qaytarish uchun elektr tarqatuvchi pol qoplamasining tagida binoning yerga ulanish tizimiga biriktirilgan elektr qaytaruvchi kontur joylashtirilishi lozim.

46. Pollarga chang ajralishiga ko'ra yuqori talablar qo'yilganda, quyidagi pol qoplamalari qo'llanishi lozim:

"kam changiydigan" (yeyilishi 0,4 g/sm<sup>2</sup> dan ortiq emas);

"changsiz" (yeyilishi 0,2 g/sm<sup>2</sup> dan ortiq emas).

Pol qoplamasining yuzasini mazkur SHNQning 3-ilovasiga muvofiq pardoqlashga yo'l qo'yiladi.

47. Pol qoplamasining yeyilishi yaxlit pol qoplamalari uchun changsizlik sinfi quyidagilardan oshmasligi kerak.

1000 bo'lgan xonalarda — 0,06 g/sm<sup>2</sup> dan;

10000 bo'lgan xonalarda — 0,09 g/sm<sup>2</sup> dan;

100000 bo'lgan xonalarda — 0,12 g/sm<sup>2</sup> dan;

linoleumli pol qoplamalari uchun esa mos ravishda — 50 mkm, 90 mkm va 100 mkm dan.

48. Changsizlik sinfi 1000 va 10000 bo'lgan sinf xonalarida biriktirilayotgan lenoleum qirralari yelimgan bo'lishi lozim.

49. Pol qoplamasining yuzasi tekis bo'lishi, bunda ikki metrli nazorat reykasini bilan tekshirilayotgan yuzasidagi tirqish quyidagi o'lchamlardan oshmasligi kerak:

polimer mastikali, taxta, parket, laminatsiyalangan parket, linoleum, sintetik tolalar asosidagi o'ramli materialli qoplamalarda — 2 mm dan;

beton (barcha turdagi), ksilolit, sement-qum qorishmasi, polivinilatsetatsement-qipiq tarkibli, beton plitalar (barcha turdagi), sopol, sopol-granit, tosh, rezina, cho'yan va po'latdan tayyorlangan, shuningdek qorishmaga terilgan g'ishtli qoplamalarda — 4 mm dan;

cho'yan plitalar va qum qatlamli g'isht qoplamalarda — 6 mm dan.

50. Pol qoplamasi yuzasining yo'l qo'yilgan qiyalikdan og'ishi xonalarining o'lchamlariga nisbatan 0,2 foizdan oshmasligi, biroq 20 mm dan ortiq bo'lmasligi lozim.

### **6-bob. Pol qoplamalarini loyihalash**

51. Pollarni qoplash uchun ishlatiladigan taxtalarining qalinligi 29 mm, parket taxtalarini esa kamida 25 mm bo'lishi kerak.

52. Parket taxtalari orasidagi tirqishlar 0,5 mm va donali parketning qo'shni plankalari orasidagi tirqishlari 0,3 mm bo'lishi lozim.

53. Parket taxtasining yelimgan maydoni 80 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

54. Qavatlararo yopmalardagi pollarning zarba va havo shovqinlaridan izolyatsiyasini yaxshilash uchun quyidagi choralardan birini qo'llash kerak:

yog'och qipikli plitalardan yig'ma styajka, fanera listlari yoki gips tolali listlarda pol qoplamalarini yotqizishni;

quyma (yaxlit) yoki yig'ma styajkalar ostida zichligi  $150 \text{ kg/m}^3$  gacha bo'lgan sintetik bog'langan mineralpaxta plitalari va shisha tolali plitalardan, zichligi  $150 \text{ kg/m}^3$  gacha bo'lgan mineralpaxta gilamlari esa zichligi 25 dan  $50 \text{ kg/m}^3$  gacha bo'lgan penopolistiroplitalar, keramzit va kvarslil qumlardan issiqlik va tovush o'tkazmaydigan qatlamlarni tayyorlashni;

yig'ma yoki quyma (yaxlit) tekislovchi qatlamlar va parket qoplamasi o'rtasida rulonli issiqlik va tovush izolyatsiya materiallarining oraliq qatlamini amalga oshirishni.

55. Qalinligi 140 mm dan ortiq bo'lgan kovakli temir-beton orayopmadagi pollardalaga ostiga qalinligi 12 dan 20 mm gacha va kengligi 100 dan 120 mm gacha bo'lgan lentasimon qistirma yoki zichligi 250 dan  $350 \text{ kg/m}^3$  gacha bo'lgan yog'och qipikli plitalar joylashtirish kerak.

Agar temir-beton oraliq yopmalarining qalinligi 140 mm dan kam bo'lsa, qo'shimcha ravishda (polning tovushdan izolyatsiyasini oshirish uchun) quruq qumdan qalinligi 20 mm gacha bo'lgan qumli to'shama, qalinligi 300 mm dan 350 mm gacha bo'lgan yog'och tolali yoki yog'och qipikli plitalar qo'yilishi lozim.

56. Lagalar derazalardan yorug'lik yo'nalishiga ko'ndalang ravishda va o'tish joyi bo'ylab odamlar harakatining ma'lum bir yo'nalishi bo'lgan xonalarda (masalan, yo'laklar) yotqizilishi, bunda taxtali qoplamalar ushbu yo'nalishlar bo'ylab joylashishi, lagalar va devorlar orasida 20 mm dan 30 mm gacha tirqish qoldirilishi kerak.

57. 40 mm qalinlikdagi lagalar oralig'i 0,9 m va qalinligi 50 mm li lagalar oralig'i 1,1 m dan oshmasligi lozim.

58. Devorlar va pardadevorlardagi eshik o'rinlari bo'lgan joylarda qo'shni xonalardagi pol qoplamasining lagaga tayanishini ta'minlash maqsadida har ikkala tomondan 50 mm ga chiqib turuvchi uzunroq laga o'rnatilishi lozim.

### **7-bob. Sintetik rulonli va ular asosidagi materiallardan tayyorlangan qoplamalar**

59. Antiseptik xususiyatlariga ega bo'lgan, alkid linoleumlari maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari, shifoxonalarda, shuningdek turar joy obyektlarida qo'llanilishi kerak.

60. Issiqlik va tovush o'tkazmaydigan asosda polivinilxloridli linoleumdan tayyorlangan qoplamalar va kimyoviy tolalar asosidagi gilamli linoleum qoplamalari uchun issiqlik o'zlashtirish ko'rsatkichlari  $12 \text{ W/(m}^2 \text{ K)}$  dan, gilamli qoplamalar uchun esa  $11,6 \text{ W/(m}^2 \text{ K)}$  dan ko'p bo'lmasligi lozim.



Zarbiy shovqinni kamaytirish indeksi kamida 18 dB bo'lishi zarur.

61. Linoleum va sintetik gilamlardan yasalgan pollarning asoslari beton asosli, temir-beton oraliq yopmali, sement qumli, gipsli yoki yengilbetonli tekislovchi qatlam (styajka) hamda ikki tomonlama gips tolali listlardan yig'ma tekislovchi qatlam (styajka), yog'och qipiqli plita va fanera listlaridan bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

62. Linoleum, sintetik plitkalar yoki gilamli qoplamali polli xonalarda pol sathi darajasidagi havo harorati 15 °C dan past bo'lmasligi, shuningdek havo namligi 60 foizdan oshmasligi kerak.

63. Linoleum, sintetik plitkalar va sintetik tukli gilamlar pastki qatlamga butun yuza maydoni bo'yicha bir tekis yopishtirilgan bo'lishi, yelimlash qatlamining qalinligi 0.8 mm dan oshmasligi zarur.

### **8-bob. Plitka materiallardan tayyorlangan qoplamalar**

64. Pol qoplamalari uchun keramik plitkalar, tabiiy tosh plitkalari va keramomarmarlardan foydalanish lozim.

65. Keramik, tabiiy tosh plitkalar va keramomarmar materiallardan tayyorlangan qoplamalar beton asosga, temir-beton oraliq yopmalar esa sement qumli yoki o'zidan tekislanadigan tekislovchi qatlam ustiga yotqizilishi lozim.

Keramik plitkali qoplamalar qo'shimcha ravishda ikki qavatli gips tolali listlardan tayyorlanishga yo'l qo'yiladi.

66. Keramik plitkali qoplamalarni polimer-sement yelimli va sement-qumli qorishma yordamida 5 °C dan past va polimer yelimli moddalarni ishlatganda esa 10 °S dan past bo'lmagan havo haroratida tayyorlash lozim.

### **9-bob. Quyma tosh, kislotaga chidamli plitkalar va g'ishtlardan tayyorlangan qoplamalar**

67. Kislotaga chidamli keramik plitkalarining qalinligi quyidagicha bo'lishi kerak:

past intensivlikda — 15 dan 20 mm gacha;

o'rtacha intensivlikda — 30 dan 35 mm gacha;

mexanik yuklarning sezilarli intensivligida — 50 mm.

68. G'isht va plitkalarni kimyoviy chidamli mastika to'shamasiga terish kerak. Bunda, kislotaga chidamli plitkalar uchun bunday mastika sifatida epoksidli yuqori elastik yelim qo'llanilishi hamda choklarni to'ldirishda plitkalar uchun mo'ljallangan epoksid yelimdan foydalanilishi lozim.

69. Pol qoplamalarini o'rnatish 10 S havo haroratidan past bo'lmagan sharoitda amalga oshirilishi kerak.

70. Agressiv suyuqliklarni to'plash va to'kish uchun mo'ljallangan kanallar, lotoklar va o'yiqlik (chuqur)lar pol qoplamasini o'rnatishdan oldin izolyatsiya qilinishi, ushbu konstruksiyalarning izolyatsiyalovchi qoplamasi pastdan boshlanishi hamda uning ustiga pol qoplamasi o'rnatilishi lozim.

71. Plitka va g'ishtlarni terishda polimer qorishma bilan tekislanadigan polosa kamida 1 m uzunlikda bo'lishi hamda teriladigan plitka yoki g'isht qatorining kengligidan 40 — 50 mm ga kengroq bo'lishi kerak.

Plitkalar va g'ishtlar orasidagi choklar ularni terish vaqtida qorishmani bosib joylashtirish bilan to'ldirilishi, choklarning kengligi g'ishtlar uchun 5 mm dan, plitkalar uchun 3 mm dan oshmasligi lozim.

72. Choklar mastikalar bilan to'ldirilishi, bunda ularni to'ldirish chuqurligi quyidagilardan kam bo'lmasligi zarur:

qalinligi 50 mm dan ortiq bo'lgan g'isht va plitkalar uchun 20 mm;

qalinligi 20 dan 30 mm gacha bo'lgan plitkalar uchun 15 mm.

73. Tozalanmagan (notekis) joylarga qalinligi 20 mm dan kam bo'lgan plitkalarni yotqizishga yo'l qo'yilmaydi.

74. Plitkalar xonaning devorlariga parallel ravishda 20 mm dan 25 mm gacha qalinlikdagi kislotaga chidamli qorishmaga yotqizilishi kerak.

75. Kislotalarga chidamli yigʻma va plitkali qoplamalarni loyihalashda suyultirilgan shisha, kremniyli natriy, zichlantiruvchi qoʻshimchalar, shuningdek kislotaga bardoshli chaqiqtoʻsh, qum va mineral kukunlardan tayyorlangan betonlardan ushbu SHNQning 2-jadvali (kislotaga chidamli va plitkali qoplamalarning nisbati)ga muvofiq foydalanilishi lozim.

2-jadval

Vazifasi	Tarkibi					
	Suyultirilgan shisha	Natriy kremneftorli	Chaqiqtoʻsh	Qum	Mineral kukun	Qoʻshimchalar
Qoplamalar va pastki qatlam uchun kislotaga chidamli beton	1	0,18	3,4	1,7	1,7	0,03
Donali materiallardan tayyorlangan qoplamalar va choklarni toʻldirish uchun markasi 150 dan kam boʻlmagan kislotaga chidamli qorishmalar	1	0,18	-	1,7	1,7	0,03

### 10-bob. Beton qoplamalar

76. Qalinligi 50 mm dan ortiq boʻlgan pol qoplamalarida koʻndalang va boʻylama yoʻnalishda qadami 3 m dan 6 m gacha boʻlgan oraliqda deformatsiya choklarini taʼminlash lozim.

77. Beton qoplamalaridagi deformatsiya choklari qoplama qalinligining 1/3 qismida, biroq 40 mm dan kam boʻlmagan chuqurlikda taʼminlanishi va oraliq yopmalarning tutashgan joylari, pastki qatlamdagi deformatsiya choklari, shuningdek armaturalash chegaralari bilan mos kelishi kerak.

Deformatsiya choklarining kengligi 3 mm dan 5 mm gacha boʻlishi lozim.

78. Beton qoplamalari uchun yirik toʻldiruvchilarning sarfi (maydalangan tosh, chaqiq tosh, marmar toshi) 1 m<sup>3</sup> betonga 0.8 m<sup>3</sup>, qum esa yirik toʻldiruvchilardagi boʻshliqlar hajmining 10 foizdan 30 foizgacha boʻlishi kerak.

79. Uchqun hosil qilmaydigan beton qoplamalar uchun ohaktoshdan olingan tosh va qum, poʻlat yoki tosh buyumlari bilan urilganda uchqun hosil qilmaydigan marmar va boshqa toza tosh materiallaridan foydalanish lozim.

80. Betonli pol qoplamalarini titratish va vakuumlash uslublari bilan tayyorlash lozim.

81. Mozaik-betonli qoplamalar ikki qatlamda amalga oshirilishi kerak.

Pastki qatlam qalinligi 10 mm dan 50 mm gacha boʻlgan sement qumli qorishma va ustki qatlam tashqi mexanik taʼsirlarni intensivligiga koʻra qalinligi 20 mm dan 30 mm li mozaika aralashmasidan boʻlishi, bunda beton asos yoki styajkada 40 mm qalinlikdagi pastki qatlamni va uzluksiz issiqlik va tovush oʻtkazmaydigan qatlamlarda 50 mm li qatlam hosil qilishi kerak.

82. Pol konstruksiyasida quvurlar boʻlsa pastki qatlamning qalinligi quvur diametridan 25 mm ga katta boʻlishi kerak.

83. Pastki qatlamdagi sement qumli qorishma va mozaika qoplamalarining siqilishga mustahkamligi 20 N/mm<sup>2</sup> (MRa) dan kam boʻlmasligi kerak.

84. Beton pollarini tayyorlash ishlari pol yuzasidagi havo harorati kamida 5 °S dan kam boʻlmagan sharoitlarda amalga oshirilishi, bunda ushbu harorat betonning loyihadagi mustahkamligi 50 foizga yetguncha saqlanishi lozim.

85. Yirik toʻldiruvchi sifatida 15 mm dan katta va qoplama qalinligi 0,6 mm dan ortiq boʻlmagan maydalangan chaqiq tosh ishlatilishi u kamida chegaraviy mustahkamligi siqilishga 60 N/mm<sup>2</sup> (MRa) ga ega sayqallangan jinlardan (yaxshi sayqallangan marmar) tayyorlanishi mazkur chaqiq tosh 2,5 — 5 : 5 — 10 : 10 — 15 fraksiyalar nisbati 1 : 1 : 1 nisbatga teng qilib qabul qilinishi kerak.

## 11-bob. Metall qoplamalar

86. Kuchli zarba yuklari ehtimoli mavjud bo'lgan yoki harorat ta'siri ostidagi xonalarda (sanoat binolari va ishlab chiqarish obyektlari) cho'yan yoki po'lat plitalardan yasalgan metall pollar ishlatilishi zarur.

87. Cho'yan yoki po'lat plitalar 250 x 250 mm yoki 300 x 300 mm o'lchamdagi bo'rtma chiziqli yuzaga ega bo'lishi lozim.

## 12-bob. Oraliq qatlam

88. Oraliq qatlam turini tanlash pollarga ta'sir qilish turiga ko'ra ushbu SHNQning 4-ilovasi talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

89. Yelimlanadigan kompozitsiyalar pol qoplamasining materiallariga mos kelishi hamda beton, sement-qum yoki gips asosga yotqiziladigan qoplamalarning ko'chirib olishdagi yopishqoqlik mustahkamligi (adgeziyasi) ta'minlanishi, bunda ushbu ko'rsatkich qoplama materialining turiga ko'ra quyidagi kattaliklardan kam bo'lmasligi lozim:

polimer yelimlarga yotqiziladigan parket qoplamalar va linoleum — 0,3 MRa;

sement yelimlarga yotqiziladigan sopol plitka, sopol-granit, tabiiy tosh plitalar — 0,5 MRa;

polimer yelimlarga yotqiziladigan sopol plitka, sopol-granit, tabiiy tosh plitalar — 2,0 MRa.

90. Oraliq qatlamning qalinligi materialning turiga ko'ra quyidagicha bo'lishi kerak:

sement-qum qorishmasi va zichlaydigan qo'shimchali suyuq shisha asosidagi qorishmadan — 10 — 15 mm;

donali materiallardan bajarilgan qoplamalar uchun polimerli qorishmalar bilan to'ldirish — 3-4 mm;

plitkani yopishtirish uchun issiq bitum mastikasi va sement asosidagi yelimli kompozitsiyadan — 2-3 mm;

parketni yopishtirish uchun yelimli kompozitsiyadan — 1,0 mm dan ortiq bo'lmasligi;

rulonli materiallarni yopishtirish uchun yelimli kompozitsiyadan — 0,8 dan ortiq bo'lmasligi;

sinfi V30 dan past bo'lmagan mayda donali betondan — 30 — 35;

qum va issiqlik izolyatsiyalovchi materiallardan — 60 dan kam bo'lmasligi.

91. Suyuqliklar ta'siriga uchraydigan pollar uchun qum va issiqlik saqlaydigan materiallardan tayyorlangan oraliq qatlamlarning qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi.

92. Polimer sement qatlamlarining qalinligi 2 mm dan 3 mm gacha bo'lishi kerak.

93. Polimer qatlamlarining qalinligi 3 mm dan 4 mm gacha bo'lishi lozim.

94. Elastik qatlam sifatida ko'pikli polietilen va polipropilenli, porolon listlari, gofrali qalin qog'oz (karton) va boshqa materiallardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

## 13-bob. Gidroizolyatsiya

95. Oqova suvlar va boshqa suyuqliklarning o'tib ketishidan gidroizolyatsiya qilish suyuqliklar polga faqat o'rtacha va katta intensivlikda ta'sir ko'rsatganda quyidagilardan gidroizolyatsiya qilinishi kerak:

suv va neytral eritmalaridan (orayopmalardagi pollarda asosning cho'kuvchan va shishuvchan gruntlarida, shuningdek isitilmaydigan xonalardagi pol asosining ko'pchiydigan gruntlaridagi pollarda);

organik eritkichlar, mineral moylar va ulardan tayyorlangan emulsiyalardan — (orayopmalardagi pollarda);

kislotalar, ishqorlar va ularning eritmaları, shuningdek hayvonlardan olingan moddalardan (grunt va orayopmalardagi pollarda).

96. Pol konstruksiyalari, lotoklar hamda ariqlar devorlari, asbob-uskunalar uchun poydevorlar usti, shuningdek polning ushbu konstruksiyalarga tutash joylarida oqova suvlar va boshqa suyuqliklarning o'tib ketishidan gidroizolyatsiya amalga oshirilishi kerak.

97. Polning devorlari, asbob-uskunalar uchun poydevorlari, quvurlar hamda poldan turtib chiqqan joylari va boshqa konstruksiyalarga tutashgan joylarida gidrozolyatsiya pol qoplamasi sathidan kamida 200 mm balandlikkacha, suv oqimi devorlarga to'g'ridan-to'g'ri tushish ehtimoli bo'lgan joylarda, namlanadigan balandlikkacha uzluksiz ravishda amalga oshirilishi zarur.

98. Oqova suvlar va boshqa suyuqliklarning o'rtacha intensivlikda ta'sir ko'rsatishida gidrozolyatsiya qatlamlarining soni material turiga ko'ra quyidagicha bo'lishi kerak:

mastikalar bilan yopishtiriladigan rulonli bitum materiallar, bitum va bitum-polimer mastikalar hamda sement asosidagi gidrozolyatsiya qiladigan qorishmalarda gidrozolyatsiya — kamida ikki qavat;

eritib yopishtiriladigan va o'zi yopishadigan rulonli bitum materiallar va polimer rulonli materiallardan gidrozolyatsiya — kamida bir qavat.

99. Polga suyuqlikning katta intensivlikda ta'sir ko'rsatishida, shuningdek oqova suvlar uchun lotoklar, ariqlar, traplar tagida hamda ulardan 1 m radiusda gidrozolyatsiya qavatlarining soni quyidagicha oshirilishi kerak:

mastikalarga yopishtiriladigan rulonli bitum materiallar, bitum va bitum-polimer mastikalar hamda sement asosidagi himoyalovchi qorishmalardan gidrozolyatsiya qilishda — kamida ikki qavat;

eritib yopishtiriladigan va o'zi yopishadigan rulonli bitum materiallar va polimer rulonli materiallardan gidrozolyatsiya qilishda — kamida bir qavat.

100. Polga mineral moylar, ular asosidagi emulsiyalar yoki organik eritkichlarning o'rtacha yoki katta intensivlikda ta'sir ko'rsatishida bitum asosidagi materiallardan yopishtiriladigan, shuningdek polga organik eritkichlarning o'rtacha yoki katta intensivlikdagi ta'sir ko'rsatishida qatron asosidagi materiallardan gidrozolyatsiyani qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

101. Bitum asosidagi materiallardan tayyorlangan yopishtiriladigan gidrozolyatsiya yuzasi bo'ylab uning ustidan tarkibiga sement yoki suyuq shisha kiradigan qoplamalar, qatlamlar, styajkalar yotqizilishidan oldin mos ravishda bitum mastikasini surtish va ustidan yirikligi 1,5 — 5 mm li qum sepish kerak.

Zavod sharoitida qum bilan qoplangan gidrozolyatsiya materiallaridan foydalanganda qum sepilgan bitum mastikasini qo'llamaslikka yo'l qo'yiladi.

102. Betonli to'shama qatlami tagidagi gidrozolyatsiya quyidagi hollarda qo'llanilishi kerak:

to'shama qatlam tagi grunt suvlarining xavfli kapillyar ko'tarilish zonasida joylashganida;

gidrozolyatsiyani loyihalashtirishda grunt suvlarining ko'tarilishiga nisbatan xavfli ko'tarilish balandligida:

chaqiq tosh, shag'al va yirik siniqli gruntlardan bajarilgan asoslar uchun — 0,25 m ga;

yirik qumli asoslar uchun 0,3 m ga;

o'rtacha yiriklikdagi qumli asoslar uchun 0,5 m ga;

changsimon qum, qumloq (supes) tuproqli va changsimon qumloq tuproqli asoslar uchun 1,5 m ga;

qumoq (suglinok) tuproq, changsimon qumoq tuproq va qumloq tuproq, gilli asos uchun 2,0 m ga;

to'shama qatlam bino otmostkasi sathidan pastda joylashganida;

sulfat, xlorid, azot, sirka, fosfor, xlorli va xrom kislotalarining polga o'rtacha va katta intensivlikda ta'sir ko'rsatishida.

103. Gidrozolyatsiyalash konstruksiyasi yer osti inshootlari, yerto'la, garajlar poydevorlari va devorlarining gidrozolyatsiyasi bilan bitta bo'lishi lozim.

104. Beton asos ostini gidrozolyatsiya qilishda:

mastikalar vositasida yopishtiriladigan rulonli bitum materiallar;

eritib yopishtiriladigan, o'zi yopishadigan rulonli bitum materiallar va polimer rulonli materiallar;

grunt bo‘ylab bajarilgan styajka qavatiga avvaldan qoplab chiqilgan bitumli va bitum-polimerli mastikalar;

sement asosidagi gidroizolyatsiyalovchi qorishmalar bilan bir qatorda bitum shimdirilgan chaqiq tosh yoki shag‘aldan bajarilgan quyma gidroizolyatsiya;

asfalt-betondan asfalt gidroizolyatsiyasi;

bevosita asos gruntiga yotqiziladigan profillangan rulonli polietilen membranalardan bajarilgan gidroizolyatsiyalar qo‘llanishga yo‘l qo‘yiladi.

105. Polga suv o‘rtacha va katta intensivlikda ta‘sir ko‘rsatadigan (ochiq stadionlar va maydonchalar) hamda beton asoslar bo‘ylab qoplama va asos orasida suv o‘tkazadigan qoplamalar ishlatilgan hollarda drenaj hosil qilish, bunda yer osti drenaj quvuri sifatida deformatsiya va ishchi choklardan foydalanish lozim.

106. Yer osti drenaj quvuri g‘ovakli strukturaga ega elastik materiallar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak.

107. Suv o‘tkazadigan qoplamalar bevosita qattiq bo‘lmagan qatlam (shag‘al va chaqiq tosh) ustidan yotqizishda, yer usti suvlarini olib tashlash va yerosti suvlari sathini pasaytirish uchun drenaj loyihalaniishi lozim.

#### **14-bob. Issiqlik va tovush izolyatsiyasi**

108. Issiqlik izolyatsiyasining qalinligi SHNQ 2.01.04-18 talablariga muvofiq belgilanishi kerak.

109. Tovush izolyatsiyasining qalinligi QMQ 2.01.08-19 talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

110. Polga 2 kN dan kattaroq to‘plangan yuk ta‘sir ko‘rsatganida, issiqlik va tovush izolyatsiyasini tashkil qilishda hisobiy yuk ta‘sirida siqilmaydigan materiallar qo‘llanishi kerak.

111. 23 °S gacha harorat bilan isitiladigan xonalarda grunt ustiga quriladigan pol qoplamasini joylashtirishda bino yotqizmasidan (otmostkasi) 0,5 m gacha yuqorida yoki pastda uning tashqi devorlar va isitiladigan xonalarni isitilmaydigan xonalardan ajratadigan devorlarga birikkan zonalarida quyidagi hollarda polda isitish qoplamasi bo‘lishi zarur:

ishlab chiqarish xonalarida o‘tirib yoki turib bajariladigan va sistematik jismoniy kuchlanish yoki og‘ir predmetlarni ko‘tarish va ko‘chirish talab qilinmaydigan ishlarda (yengil ishlarda);

turar joy obyektlari va jamoat binolarining odamlar doimiy ravishda bo‘ladigan xonalarida.

112. Pol qoplamasi nishab yo‘lka (otmostka)dan 0,5 m dan balandroqda joylashgan bo‘lsa grunt bo‘ylab pol to‘shashga yo‘l qo‘yilmaydi.


Bunday hollarda yerto‘la qurishga yo‘l qo‘yiladi.

113. Grunt bo‘ylab yotqizilgan polni izolyatsiyalash uchun polga eni devorlardan 0,8 m keladigan namlikka chidamli isitkich (masalan, zichligi 40 kg/m<sup>3</sup> dan kam bo‘lmagan penopolistirol) to‘shaladi, bunda isitkichning qalinligi SHNQ 2.01.04-18 bo‘yicha ushbu qavatning termik qarshiligi tashqi devorning termik qarshiligidan kam bo‘lmaslik shartidan kelib chiqib aniqlanishi kerak.

114. Yerto‘lalar bo‘lmagan bir xonadonli turar joy obyektlarida pollarni izolyatsiyalash ushbu SHNQning 113-bandi bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

115. Pol qoplamasi nishab yo‘lka (otmostka)dan 0,5 m dan balandroqda joylashgan yerto‘la mavjud bo‘lgan hollarda pol uning butun maydoni bo‘ylab isitilishi lozim. Bunda, isitkich qalinligi SHNQ 2.01.04-18 bo‘yicha, ushbu qavatning termik qarshiligi tashqi devorning termik qarshiligidan kam bo‘lmaslik shartidan kelib chiqib aniqlanishi kerak.

116. Ikki yoki undan ortiq qatlamlardan foydalanganda vertikal choklar usma-ust tushmasligi, bunda plitkalarining ko‘ndalang yo‘nalishda kamida 300 mm siljishi bilan qatlamlarni yotqizish lozim.



2-расм. Иссиқлик ва товуш ўтказмайдиган пенополистирол плиткаларнинг схемаси

### 15-bob. Tekislovchi qatlam (styajka)

117. Tekislovchi qatlamlar(styajka)ni quyidagi hollarda qo‘llash lozim:

sirt qatlam yuzasini tekislashda;

quvurlarni yopishda;

yuklarni issiqlik va tovush izolyatsiyasi qatlamlari bo‘yicha taqsimlashda;

polning me‘yorlashtirilgan issiqlik o‘zlashtirishini ta‘minlashda;

orayopmalar pollarida qiyalik hosil qilishda.

118. Tekislovchi qatlam (styajka) oqova suvlar uchun lotoklar, ariqlar va traplarga tutashgan yerlarida qiyalik hosil qilish uchun eng kam qalinlikdagi orayopma plitalari bo‘ylab yotqizilganda 20 mm ni, issiqlik yoki tovush izolyatsiyasi qatlami bilan yotqizilganida 40 mm ni tashkil qilishi, quvurlarni yopish uchun tekislovchi qatlam (styajka) qalinligi quvur diametridan 10 — 15 mm ortiqroq bo‘lishi lozim.

119. Tekislovchi qatlam (styajka)lar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

pastki qatlam yuzasini tekislash va quvurlarni yopish uchun, bunda siqilishga mustahkamligi V 7,5 dan past bo‘lmagan sinfli beton yoki siqilishga mustahkamligi 15MPa (150 kgs/sm<sup>2</sup>) dan past bo‘lmagan sement-qum qorishmasida;

orayopmada qiyalik hosil qilish uchun, bunda siqilishga mustahkamligi V 7,5 dan past bo‘lmagan sinfli beton yoki siqilishga mustahkamligi 10MPa (100 kgs/sm<sup>2</sup>) dan past bo‘lmagan sement-qum qorishmasida;

quyma polimer qoplamalar ostiga, bunda siqilishga mustahkamligi V 15 dan past bo‘lmagan sinfli beton yoki siqilishga mustahkamligi 20MPa (200 kgs/sm<sup>2</sup>) dan past bo‘lmagan sement-qum qorishmasida.

120. Polning me‘yorlangan issiqlik o‘zlashtirishini ta‘minlash uchun bajarilgan yengil betonli tekislovchi qatlam (styajka)larning siqilishga mustahkamligi bo‘yicha V5 sinfiga, g‘ovakli sement-qum qorishmasi esa siqilishga mustahkamligi bo‘yicha 5 MRa ga mos kelishi kerak.

121. Issiqlik va tovushni izolyatsiya qiluvchi elastik qatlam ustidan to‘shaladigan tekislovchi qatlam (styajka)lar siqilishga mustahkamligi V 15 dan past bo‘lmagan sinfli betondan yoki siqilishga mustahkamligi 20 MRa dan past bo‘lmagan sement bog‘lovchili quruq qurilish pol aralashmalarining sement-qum qorishmalaridan tayyorlanishi lozim.

122. Polga 2 kN (200 kgf) dan ortiq bir yerga to‘plangan yuk ta‘sirida issiqlik va tovushni izolyatsiya qiluvchi qatlam ustidan beton qatlam yotqizilishi kerak.

Bunda, uning qalinligi ushbu qatlam deformatsiyasini chiqarib tashlash shartidan kelib chiqadigan hisoblar asosida belgilanishi lozim.

123. Pastda yotgan qatlam yuzasini tekislash uchun qo'llanadigan sement bog'lovchili quruq qurilish pol aralashmalari asosidagi o'zi zichlanadigan dispers qorishmalardan tayyorlangan monolit tekislovchi qatlam (styajka)larning qalinligi kompozitsiya tarkibidagi to'ldirgich maksimal diametrining 1,5 qismidan kam bo'lmasligi zarur.

124. Sement bog'lovchi asosidagi 28 kunlik tekislovchi qatlam (styajka)larning beton asosdan ko'chirib olishga bo'lgan ulanish mustahkamligi (adjeziyasi) 0,6 MRa dan kam bo'lmasligi, qotgan qorishmaning (betondan) beton asos bilan ulashish mustahkamligi 7 kundan keyin loyihalashtirilganiga nisbatan 50 foiz dan kam bo'lmasligi lozim.

125. Tovushni izolyatsiya qiladigan qistirmalar va to'kmalar ustidan bajarilgan tekislovchi qatlam (styajka)larning boshqa konstruksiyalar (devorlar, pardevorlar, orayopmalar orqali o'tadigan quvurlar) bilan tutashgan yerlarida tekislovchi qatlam (styajka)ning butun qalinligi bo'ylab eni 25 — 30 mm keladigan va tovushni izolyatsiya qiladigan material bilan to'ldiriladigan tirqishlar bo'lishi lozim.

126. Nam jarayonlarni bartaraf etish hamda issiqlik o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida gips tolali, yog'och-paraxa va sement-paraxa listlari yoki faneralardan yig'ma tekislovchi qatlam (styajka)lar qo'llanishi kerak.

127. Tekislovchi qatlam (styajka) yuzasining gorizont tekislikdan og'ishi (ikki metrli nazorat reykasi va tekshirilayotgan yuza orasidagi tirqishlar) qatlam bo'yicha donali materiallardan to'shaladigan qoplamalar uchun quyidagilardan oshmasligi kerak:

sement-qum qorishmasi, ksilolit, polivinilatsetat-sement-qipiq tarkibli qatlam, shuningdek yelimlanadigan gidroizolyatsiya yotqiziladigan qatlam bo'yicha — 4 mm;

